

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

5-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>M.Mamadaliyeva</b>	
Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida jamoatchilik nazorati .....	208
<b>F.M.Mamadova</b>	
Pedagogik madaniyat va kompetensiyani takomillashtirishning uslubiy jihatlari .....	211
<b>Z.A.Boboyeva</b>	
Uzluksiz ma'naviy tarbiya ijtimoiy barqarorlik va rivojlanishning muhim omili.....	214
<b>G.H.Axmedova</b>	
Jorj Eliotning "Daniel deronda" romanining o'ziga xos jihatlari tahlili.....	219
<b>F.A.Temirova</b>	
Hsg misolida idiomatik lug'atni tuzish yondashuvlarining uslubiy tahlili: taqqoslash, xususiyatlari va tavsiyalari .....	222
<b>G.Sh.Zununova</b>	
Zamonaviy o'zbek turar joyining dastlabki manbalari haqidagi masalalar bo'yicha .....	226
<b>F.K.Yusupjanova</b>	
Maxsus fanlarni o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar .....	231
<b>U.Abdullayeva</b>	
Bo'lajak kimyo fani o'qituvchilarini ekologik ta'lim-tarbiyani amalga oshirishga tayyorlash .....	235
<b>Y.J.Mirzaaxmedova</b>	
Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixiga doir bilimlarni rivojlantirish yuzasidan tajriba-sinov ishlarining samaradorligi .....	241
<b>D.A.Xolmatov</b>	
Odil Yoqubov hikoyalarining janr xususiyatlari .....	247
<b>Sh.K.Xujamberdiyeva</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishning zamonaviy texnologiyalari .....	252
<b>I.I.Soliyev</b>	
OTMLar boshqaruvini isloh qilish va unga yangicha yondashuvlarni tatbiq qilish zarurati.....	257
<b>D.T.Tursunova</b>	
Ijtimoiy faollik tushunchasining mazmun-mohiyati va uning gender xususiyatlari .....	264
<b>D.D.Boymirzayeva</b>	
Oliy ta'lim muassasalarida tashkiliy-boshqaruv mexanizmlarini isloh qilish va unga yangicha printsiplarini joriy qilish zarurati .....	270
<b>M.Norinov</b>	
Bo'lajak texnik mutaxassislarining kasbiy kompetensiyasini multimediya vositalari asosida rivojlantirish omillari .....	275
<b>F.A.Askarov</b>	
Jismoniy yuklama to'g'risida umumiy tushuncha va jismoniy mashqlar yuklamasining pedagogik xususiyatlari .....	279
<b>S.Y.Xushvaqtoq, M.M.Jurayev, N.M.Qutlimuratov</b>	
Mahalliy xomashyolar asosida olingan yangi ionitga yod ionlarining sorbsiya kinetikasi .....	282
<b>U.A.Buriyeva</b>	
Ingliz tilshunosligida to'liqsiz gaplarning shakllanishi .....	287
<b>N.N.Teshayev</b>	
Taraqqiyotning yangi bosqichida fuqarolik jamiyati ma'naviy-mafkuraviy omillarini mustahkamlash amaliyoti .....	291
<b>M.Saminjonov</b>	
Turli sohalardagi qasamyodlarning rasmiy tuzilishi.....	295

**JORJ ELIOTNING “DANIEL DERONDA” ROMANINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI  
TAHLILI****АНАЛИЗ ОСОБЕННОСТИ РОМАНА ДЖОРДЖА ЭЛИОТА “ДАНИЕЛ ДЕРОНДА”****ANALYSIS OF THE FEATURE OF GEORGE ELIOT’S NOVEL “DANIEL DERONDA”****<sup>1</sup>Axmedova Gavharoy Hasanboy qizi**<sup>1</sup>Farg‘ona davlat universiteti, adabiyotshunoslik kafedrası tayanch doktoranti**Annotatsiya**

Garchi Jorj Eliotning bir qator romanlarida millat taqdiri, ingliz xalqi turmush tarzi kuchli tanqid bilan yoritilgan bo‘lsa-da, “Daniel Deronda” Eliotning Viktoriyan hayotidagi ingliz ritorikasini, diniy va madaniy xurofotni, qonunni va qonunlarni birlashtiruvchi milliy afsonalarni, tabaqalashtirish va sinflar o‘rtasidagi tafovutlarni o‘zida mujassam etgan eng tanqidiy romanidir. Shuningdek, Daniel Deronda, Jorj Eliotning eng didaktik romani hisoblanib, yozuvchi bir vaqtning o‘zida ingliz jamiyatini tanqid qilgani holda, kitobxonga o‘zlikni anglash, o‘z qadriyatlarini, o‘ziga bo‘lgan ishonch-hurmat tuyg‘ulariga ega bo‘lishni ham tasvirlaydi.

Ushbu maqolada Jorj Eliotning so‘nggi romani hisoblangan Daniel Deronda romani haqida va asar qahramonlarining xarakter qirralarini o‘quvchilarga to‘liqroq ochib berish maqsad qilingan. Eliot personajlari orqali real hayotdagi odamlarning qabihliklari-yu, insoniylik xususiyatlarini qay usulda bunchalik muvaffaqiyatlik tarzda o‘quvchiga yoritib bera olgani va vaqt o‘tgan sari turli tanqidchilar tomonidan qanday qabul qilinganligi ko‘rib chiqiladi.

**Аннотация**

Хотя ряд романов Джорджа Элиота посвящены судьбам нации и образу жизни английского народа и подвергаются резкой критике, «Даниел Деронда» является наиболее критическим романом, воплощающим в себе различия в викторианской жизни, английской риторике, религиозной и культурной жизни, предрассудки, право и законы объединяющие национальные мифы, расслоение и классовую смерть. Кроме того, «Даниел Деронда», считающийся самым дидактическим романом Джорджа Элиота, хотя автор в то же время критикует английское общество, заставляет читателя обрести чувство идентичности, ценностей и самоуважения.

В этой статье, посвященной последнему роману Джорджа Элиота «Даниэль Деронда», исследуется природа персонажа, опираясь на определения и отношение к этому термину. В нем рассматривается каким образом формируются определенные персонажи Элиота, рассматривая их с разной степенью успеха как репрезентации людей, и как они были восприняты критиками с течением времени.

**Abstract**

Although a number of George Eliot's novels deal with the fate of the nation and the way of life of the English people and are heavily criticised, "Daniel Deronda" is the most critical novel, embodying the differences in Victorian life, English rhetoric, religious and cultural life, prejudice, law and law uniting national myths, stratification and class death. In addition, Daniel Deronda, considered to be George Eliot's most didactic novel, although the author criticises English society at the same time, makes the reader gain a sense of identity, values and self-respect.

This article aims to more fully reveal to the readers about the novel Daniel Deronda, which is considered the last novel by George Eliot, and the nature of character, drawing upon definitions and attitudes to that term. It looks at how certain of Eliot's characters are formed, considering them in their varying levels of success as representations of people, and how they have been received by critics over time.

**Kalit so‘zlar:** xarakteristika, tanqid, roman, Daniel Deronda, ingliz adabiyoti, madaniy jihatlari, insoniylik.

**Ключевые слова:** характеристика, критика, роман, Даниэль Деронда, английская литература, культурные аспекты, человеческая природа.

**Key words:** characterization, criticism, novel, Daniel Deronda, English literature, cultural aspects, human nature.

**KIRISH**

“We mortals have a strange spiritual chemistry going on within us, so that a lazy stagnation, or even a cottony milkiness may be preparing one knows not what biting or explosive material...” [9,364]

“Biz, insonlarning, ichimizda g‘alati ruhiy-hissiy holatlar, tug‘yonlar sodir bo‘ladiki, xuddiki kimyo fanida bo‘lganidek paxtadek oppoq sutdan tishlash, va hatto portlovchi mahsulot yaratish mumkin bo‘lganidek, insonlarni ham turli kechinmalarda yolg‘iz qoldirib qo‘yishi mumkin”

Eliot bizga inson tabiatining oldindan aytib bo‘lmas jihatlarga, xarakterga ega ekanligini fikrlari bilan isbotlaydi: uning fikricha, har bir inson rahm-shafqatga, “sof fitrat, tabiat”ga ega holda tug‘iladi, ya‘ni dunyoda necha minglab turli millatlar, xalqlar bo‘lishiga, ularning turli muhit va oilada

dunyoga kelishiga qaramasdan, har bir inson tabiatan yaxshilikka, go'zallikka, ijobiy xislatlarga moyil bo'ladi. Lekin hayot insonni shunday o'zgartirib yuboradiki, endi u insonlarda ma'lum bir o'xshash xarakterlarni oldindan ayta olish qiyin bo'lib qoladi.

Agar shu o'rinda "character" so'zining etimologiyasini o'rganadigan bo'lsak, yunoncha "o'tkirlash", "o'rash" yoki "o'yma" degan ma'noni anglatadi: qadimda aynan harflar, belgilar va belgilarni bosib yozishga nisbatan ham shu so'z qo'llanilgan. Keyinchalik esa, insonlarga xos belgilar, xususiyatlarni ifodalash uchun xarakter so'zi qo'llanila boshlangan. Uilyam Shekspirning ta'kidlashicha, odamlarga xos ma'nolar, belgilarni ifodalash ham aynan ma'noning o'zgarishi metafora orqali yuzaga kelgan:

*"a minde that suites with this thy faire and outward character"[12,78]*

*Sening tashqi ko'rinishingga mos keladigan aql"*

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

O'n sakkizinchi asrga kelib, "character" so'zi "shaxs" ma'nosini oldi va bir vaqtning o'zida "xarakter" badiiy adabiyotda uchraydigan qahramonlar, personajlarni tasvirlash uchun ishlatila boshlandi.

Eliot o'z asarlarida qahramonlarini, shaxslar xakteri yillar davomida xuddiki naqshdek o'ymalanib, o'zgarib boradi, shu sababdan ham hech bir insonni oldindan qandayligini aytish amri mahol, hatto bilganingizda ham u siz o'ylagandek bo'lib chiqmasligi mumkin degan fikr ostida tasvirlagan.

Shuning uchun ham, Eliot asarlarida personajlar tasviri xuddi shiddatli harbiy-dengiz flotiga o'xshaydi, kuchli to'fonda istagan tomonga suzishi, yo'lini o'zgartirishi va yo'nalishini hech qachon dushmanga ko'rsatmaydigan. Chunki yozuvchi asarlarida bir qarasangiz, gipotetik xayoliy mavjudot sifatida tasvirlangan qahramon shunday kuchli hislarni namoyon etadi, yoki hissiz, hayotdan butunlay uzilgan, befarq inson asar so'nggida juda kuchli iroda egasidek namoyon bo'ladiki, kitobxon hech qachon Eliot asarlari qahramonlarini xatti-harakatlarini oldindan ko'ra olmaydi.

Jorj Eliot shu sababdan ham "kuchli psixolog"dek, kitobxonni odam va uning potensial harakatlari, qobiliyatlarini his qila olish nima ekanligini, biz hali uchratmagan haqiqiy shaxs va ular bilan birga xayoliy qahramonlar dunyosidagi bog'liqliklarni, har bir "xarakter" ortidagi o'ziga xos belgilarni, ma'nolarni anglashga undaydi. Bunday mahoratga esa yozuvchi badiiy adabiyotda aks ettirishning yangi usullarini doimiy ravishda izlash, izlanish orqali erishganligi kundek ravshan.

Frenologiya shaxslar o'rtasidagi farqlar, individual xususiyatlarga e'tibor qaratgan birinchi psixologiya bo'lib, kuzatish va tasniflashning tabiiy ilmiy ko'nikmalariga asoslangandi. O'zining yozuvchilik faoliyati davomida, Jorj Eliot inson ongini o'rganishdagi zamonaviy o'zgarishlarga javoban va biz ko'rib turganimizdek, yangi "psixologik realizm"ga intilish orqali o'z san'atini oldinga siljitdi.

"Agar san'at etikasi mohiyatan oliyanob, ammo katta xatoga yo'l qo'yadigan xarakterning haqiqatga to'g'ri ko'rsatilishini tan olmasa - uning oliyanobligi uchun xato qilish azob bo'lsa - demak, meningcha, unda san'at etikasi juda tor va u kengaytirilishi kerak. Shundagina u rivojlanib borayotgan psixologiyaga mos keladi"-deb fikr bildirgan edi Eliot o'zining bir asarida. Eliot asarlari qahramonlari xayoliy bo'lgan bo'lsa-da, yozuvchi fikricha, asar personajlari kitobxonlar tomonidan tan olinishi zarur. Chunki uning asar qahramonlari real hayotdagi insonlar bilan juda o'xshash jihatlarga ega edi.

Agar realistik romanda "haqiqat" bizning dunyomiz bo'lsa yoki bu holda Eliot qayta tiklashga harakat qilayotgan Viktoriyan dunyosi bo'lsa, garchi qahramonlar butunlay xayoliy bo'lsa ham, biz ularni odamlar sifatida tan olishimiz muhim: ular hayot haqiqatiga juda mos va yaqin. Buning uchun fantastik qahramonlarning "shaxsiyatlarini" ularning ongini shakllantirishda birlashishi mumkin bo'lgan qobiliyatlarning haqiqiy mahsuli bo'lib ko'rinishi kerak, shunda biz bu personajlarni faqatgina kitobdagi qahramonlar sifatida o'qish o'rniga, o'zimizni ulardek his qila olishimiz, yoki, ularni biz "tanish" bo'lgan "odamlar" sifatida qabul qilishimizni ta'minlab bera oladi. Aynan mana shu jihat "psixologik realizm" ta'siri bo'lib, haqiqatda mavjud bo'lmagan narsa, hodisa, shaxslarga bog'lanishni ong orqali vujudga keltirishni maqsad qilgan.

#### **NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Jorj Eliotning “Daniel Deronda” romanida ham aynan yozuvchi shunday psixologik reallikni kitobxon ongiga mohirona joylaydiki, o‘quvchi o‘zi bilmagan holda asar qahramonlari his-tuyg‘ularini xuddiki o‘zirikidek his qiladi. Asarning 1-bobidan boshlab, kitobxon Daniel fikrlari, hislari bilan birga yashashni boshlaydi. Asarning boshqa personajlarining tasviri, hatto bosh qahramonlaridan biri Gvendolen tasviri ham aynan Daniel fikrlari orqali tanishtiriladi.

“the *“light-brown hair”, “long narrow eyes”, the “warm paleness” of her complexion, the “delicate nose with its gradual little upwards curve”, “And then her mouth –there never was a prettier mouth, the lips curl back so finely...”*”.

“*och jigarrang sochlar”, “uzun tor ko‘zlar”, uning rangi “iliq rangparligi”, “asta-sekin yuqoriga qarab egilgan nozik burun”. , “Va keyin uning og‘zi - hech qachon bunday go‘zal og‘iz bo‘lmaganligi, lablar juda nozik orqaga burilganligi...”*”[11,43]

Yoki yana bir asar qahramoni Grandkort tasvirida ham Jorj Eliotning juda mohirona uslubini ko‘rish mumkin:

“*...who can at once describe a human being? Even when he is presented to us we only begin that knowledge of his appearance which must be completed by innumerable impressions under differing circumstances. We recognise the alphabet; we are not sure of the language*”[10,145] .

“..kim bir vaqtning o‘zida odamni tasvirlay oladi? U bizga taqdim etilganda ham, biz faqat uning tashqi ko‘rinishi haqidagi bilimni boshlaymiz, bu esa turli sharoitlarda son-sanoqsiz fikrlar, hissiyotlar bilan yakunlanishi mumkin. Biz shunda alifbonigina taniymiz, lekin tilni bilishimizga ishonchimiz komil emas”.

Asarda dastlab o‘quvchiga Gvendolen va Grandkort nikohda hukmronlik mavqeiga ega bo‘lish istagida teng bo‘lib tuyuladi, ammo farqlar hamma narsaning aslida turlicha ekanligini vaqt o‘tib oshkor etadi: Gvendolenning irodali tabiati faqat o‘z-o‘zidan zavqlanishga intiladi, Grandkort esa faqat shafqatsiz zulm orqali zavq oladi: u-sadist, sadistikning yorqin namunasi. Sadizmning o‘zagi esa tirik mavjudot ustidan mutlaq va cheksiz nazoratga ega bo‘lish ishtiyoqidir, eng bezarar hollarda qarshisidagi odamning ojiz, nozik tomonini topadi, zarar beradi. Bu holat insonda chuqur ildiz otgan ruhiy bo‘shliqning o‘rnini qoplash zarurati bilan yuzaga keladi. Uning boshqalarni boshqarishga bo‘lgan ehtiyoji o‘zini o‘zi himoya qilishdan ko‘ra “erkak kuchining tashvishlarini” aks ettiradi. Bu Grandkortning asosiy belgilaridan biri sifatida tasvirlanadi.

Shuningdek, “Daniel Deronda” romanida kitobxon insoniylikka to‘g‘ri kelmaydigan xususiyatlar bilan ifodalangan shaxslar tasviri, turfa xil xarakterdagi insonlarning boshlaridan kechirgan turli og‘riqlariga ham duch keladi.

## XULOSA

Jorj Eliotning “Daniel Deronda” romani Viktoriya antisemitizmini fosh qilish bilan ajralib tursada, personajlar o‘rtasidagi insoniylik fazilatlaridagi qarama-qarshiliklar yuksak mahorat bilan tasvirlangani asarning eng katta yutug‘idir. Xarakterni tarbiyalash esa Eliotning asosiy maqsadi bo‘lgan. Shuningdek asar qahramoni Danielning boshidan kechirganlari, tashqi va ichki go‘zallikning farqini anglashdagi tajribalaridan ham kitobxon xabardor bo‘ladi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Anon. (1998) “Woman in her Psychological Relations”. In Bourne Taylor, J. & Shuttleworth, S. (eds) Embodied Selves: An Anthology of Psychological Texts 1830-1890. Clarendon Press: Oxford
2. Barlow, J. (1998) “The Power of Self Control”. In Bourne Taylor, J. & Shuttleworth, S. (eds) Embodied Selves: An Anthology of Psychological Texts 1830-1890. Clarendon Press: Oxford
3. Beer, G. (2000) Darwin’s Plots: Evolutionary Narrative in Darwin, George Eliot and Nineteenth-Century Fiction. Cambridge University Press: Cambridge
4. Bloom, H. (2009) “Introduction”. In Bloom, H. & Atkinson, J. (eds) George Eliot. Infobase Publishing: New York
5. Browne, R. W. (1853) The Nicomachean Ethics of Aristotle. Henry G. Bohn: London
6. Combe, G. (1998) “The Constitution of Man”. In Bourne Taylor, J. & Shuttleworth, S. (eds) Embodied Selves: An Anthology of Psychological Texts 1830-1890. Clarendon Press: Oxford
7. Eliot, G. (1955) The George Eliot Letters: 1874-1877. Yale University Press ed. Yale University Press: New Haven
8. Eliot, G. (1974). Daniel Deronda. Penguin English Library:Middlesex
9. Eliot,G. (1974). Daniel Deronda. Penguin English Library:682-p.
10. Eliot,G. Daniel Deronda. Oxford University Press,2009. 768-p.
11. Eliot,G. Daniel Deronda. Oxford University Press,2009. 768-p
12. Shakespeare. Twelfth Night. Oxford University Press,1998. 115-p.